



SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN BUILDING A DEMOCRATIC SOCIO-LEGAL STATE

Zafar Saydullayevich Botirov

Lecturer

Al-Fraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: society, state, youth, family-mahalla-education, law, civil society, activism.

Received: 25.09.24

Accepted: 27.09.24

Published: 29.09.24

Abstract: This article emphasizes that young people are a huge force in implementing large-scale reforms in our country and building a social and legal state. It analyzes the formation and introduction into the consciousness and life of our people of relatively new approaches to building a socio-legal state.

DEMOKRATIK IJTIMOIY -HUQUQIY DAVLAT QURISHDA YOSHLARNI IJTIMOIY FAOLLIGI

Zafar Saydullayevich Botirov

o'qituvchi

Al-Fraganus universiteti

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Jamiyat, davlat, yoshlar, oila-mahalla-ta'lif, huquq, fuqarolik jamiyat, faoliy.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar hamda ijtimoiy -huquqiy davlat qurishda yoshlarning bu islohotlarni amalga oshiruvchi ulkan kuch ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Shu o'rinda xalqimiz ongi va hayotidagi ijtimoiy-huquqiy davlat qurishda nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanishi va hayotga tatbiq qilish tahlil qilingan.

СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ В ПОСТРОЕНИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОГО ГОСУДАРСТВА

Зафар Сайдуллаевич Ботиров.

преподаватель

Университет Аль-Фрагана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, государство, молодежь, семья-махалля-образование, право, гражданское общество, активность.

Аннотация: В данной статье подчеркивается, что молодежь является огромной силой в осуществлении широкомасштабных реформ в нашей стране и построении социально-правового государства. Здесь проанализировано формирование и внедрение в сознание и жизнь нашего народа относительно новых подходов к построению социально-правового государства.

KIRISH

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishlishi sharoitida ijtimoiy-siyosiy faollik ko‘proq yoshlar tashkilotlari, ma’naviyat va ma’rifatga daxldor jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla, oila va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida o‘zaro mustahkam aloqa bog‘lanishini talab etadi.

O‘zbekiston jamiyati o‘z taraqqiyotini kelajakda yoshlar o‘sib tarbiyalanib kelayotgan ko‘radi va ularni oldiga ulkan mas’uliyatli vazifalar qo‘yadi. Bunday ma’suliyatli vazifalarni bajarishda jamiyatimizdagи muhim ijtimoiy qatlarning ijtimoiy qiyofasi, tavsifini, fe’li, orzu-niyatlari haqida doimo boxabarlikni ta’minlashdan tashqari ular faoliyatini optimallashtirish, ezgulikka yo‘naltirib turish, oxir oqibatda esa barkamol avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shishdan iboratdir. “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asosan o‘quv-tarbiya jarayonlarini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, ta’lim, zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalari bilan birga zamonaviy falsafa fani yutuqlarini amalda uyg‘un qo‘llashni taqozo etadi. Tarbiyaning bosh maqsadi jamiyatda ongli hayot kechirish, yuksak madaniy-intellektual hamda farovon muhitni tarkib toptirishga mo‘ljallangandir. Ta’lim tizimidagi yangi milliy modelimiz jamiyatdagi potentsial kuchlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga davlatning katta e’tibori, ko‘plab sarmoyalar sarflanishi mamlakatimizda aholining turmush darajasini har tomonlama yaxshilanishiga Real shart-sharoitlar tug‘dirmoqda. Biroq, biror narsadan natija kutishdan avval biz o‘sha narsani chuqur anglab, masalaga ilmiy-amaliy yondashishimiz darkor. Shu jihatdan olganda davlatimizning yoshlar siyosati, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi samarasini oshirish uchun ham jamiyatimizdagи yoshlarni o‘ziga xos qatlam sifatida chuqurroq o‘rganish falsafaning bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi deb hisoblaymiz.

Shuni aytish kerakki yoshlar ilmu avvola o‘tkazilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi niaga qaratilganmiz va uni qay darajada tushunishi va uni qo‘llab-quvvatlashi ham muhimdir. Yoshlarga islohotlarning pirovard maqsadi jamiyat hayotini farovonligini oshirishga va ijtimoiy

davlat qurishga qaratilganligini anglab etishi kerak. Ana shundagina, yoshlarning bu islohotlarni amalga oshiruvchi ulkan kuch ekani kengroq namoyon bo‘ladi. Ular bu jarayonlarda o‘zlarini barkamol avlodni shakllantirish jarayonlarining tarbiyalanuvchilari sifatida his etishlari bilan birga, ma’naviy-ma'rifiy islohotlarning bunyodkori ham o‘zlari ekanliklarini chuqur tushunib etadilar. Bu yoshlarni ongli amaliy harakati va faoliyatini ta'minlab, barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan ma’naviy-ma'rifiy islohotlarning istiqbolini belgilaydi. Shu o‘rinda, mamlakatimiz – yoshtar mamlakati va shu bilan birga aholining ko‘pchiligini yani 60 foizidan ko‘prog’ini yoshtar tashkil qiladi. Demak Yurtboshimiz ko‘p e’tirof etganday ertangi hayotimiz qanday bo‘lishligini bugungi kunda tarbiyalanayotgan yoshtar hal qiladi. Shu sababdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘rni va roliga jiddiy e’tibor qaratmoq joiz. Shaxs, millat va jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish o‘zining milliy-g‘oyaviy asoslariga ega.

ASOSIY QISM

Yoshlarning ijtimoiy faoliginida ularni intellektual-ruhiy kamoloti ma’naviy o‘z-o‘zini anglashi jarayonlari bilan bevosita bog‘lidir. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizni doimo qiyaydigan, tinchlik bermaydigan orzu-niyatimiz, Yaratgandan so’raydigan eng katta tilak-iltijomiz shuki, betakror, go’zal, saxovatli Yangi O‘zbekistonimizda, albatta, har tomonlama sog‘lom, o‘zining kuch-qudrati, barkamolligi bilan o‘zgalarning havasini uyg’otadigan avlodlar yashashi kerak”[1-205] - deb ta’kidlaydi Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida yoshtar xarakterida ijtimoiy ideallarning susayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim masaladir.

Buning uchun eng birinchidan yoshlarning milliy o‘zligini anglash zarurati yotadi. Uning uchun hozirgi davrda ular ijtimoiy manfaatlarini o‘rganish hamda nazariy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- plyuralizm yani fikrlar xilma-xilligi nuqtai nazaridan yoshlarni ijtimoiy manfaatlarini mavjud kontsepsiylar orqali tahlil etiladi va zamonaviy sharoitlarga xos bo‘lgan qarashlar tarzida ifodalab beriladi;
- ijtimoiy manfaatlarning jamiyatdagi o‘rni, ahamiyati hamda zamonaviy hayotdagi siyosiy, huquqiy va iqtisodiy manfaatlarni o‘zaro uyg‘unligi;
- ijtimoiy manfaatlar mazmuni va mohiyati jamiyat rivojidagi tendentsiyalarini sosiologik tadqiqotlar natijasi orqali aniqlash;

Bugungi jamiyat hayo tida demokratik islohatlarni keng targ‘ib qilish evaziga o‘z oldiga ijtimoiy-huquqiy davlatni shakllantirishda har tomonlama kreativ fikrlovchi yoshtar shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bu esa o‘z navbatida vatanparvar, millatparvar, boy ma’naviy merosini ko‘z qorachig‘iday asraydigan yoshlarni tarbiyalash demakdur. Shundagina ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirzeyev ta’kidlaganday

“Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[2] degan edi.

XXI asr butun dunyoda jamiyatni insoniyatni shiddatli va ziddiyatli o‘zgarishlarga olib keldi. Insoniyat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik muammolar echimini izlash qatorida, yangi mafkuraviy muammolar girdobida yashamoqda. O‘zbekiston Respublikasida dunyoviy va demokratik jamiyat qurish va uning o‘ziga xos qiyinchiliklari mamlakat yoshlariga bo‘layotgan turli mafkuraviy tahdidlarni oldindan ko‘ra bilish, ularga qarshi ta’sir tamoyillarini belgilash va amaliy sa'y-harakatlar tizimini ishlab chiqishni dolzarb vazifalardan biri darajasiga ko‘taradi. Mafkuraviy tazyiq va tahdidlar jamiyatlar hamda davlatlar butunligi, ular suvereniteti, yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda yangi asrning asosiy qarama-qarshiligini o‘zida namoyon etayotgan ijtimoiy-siyosiy voqelikdir. “Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish tizimini yaratish; ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan voyaga etmaganlar va yoshlarga davlat tomonidan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish; voyaga etmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalash maqsadida zarur ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish”[3-160].

O‘zbekiston suverenitetiga qarshi tahdidlar bugungi kunda o‘zining serqirraliligi, murakkabligi, o‘z maqsadlari va amal qilish yo‘nalishlarini tez o‘zgartirayotganligi, ayniqsa, asosan uyushmagan yoshlarning ongi hamda tafakkuriga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek yoshlar orasida ham o‘z tengdoshlariga axborot texnologiyalarini, ommaviy axborot vositalari tizimini yanada shakllantirish, rivojlantirish borasida qator qonunlar va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda va ularni o‘rganish bugungi kun uchun juda muhimdir. Hozirgi davrda O‘zbekistonning eng chekka tumanlarida joylashgan o‘quv dargohlarida xam eng zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan Internet kutubxonalari tashkil etilgan. Endilikda eng chekka qishloqlarda tahsil olayotgan bolalar ham shahardagi tengdoshlari bilan har qanday sohada bellasha oladigan darajada bilimlarni egallamoqda, nafaqat O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan, balki jahonda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy yangiliklar bilan tanishib, o‘zining dunyoqarashini kengaytirib bormoqda.

Har qanday davlat, jamiyat, inson o‘zini himoya qila olsagina, ko‘zlagan maqsadlariga erishadi. Davlat va millatning tobe holatga tushib qolmasligining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li - faol, mafkuraviy uyg‘oq, milliy manfaatlarni anglagan va qadrlaydigan yoshlarni faol bo‘lishi, mafkuraviy kurashlarga tayyorligidir. Bugungi tahdidli vaziyatlarda ana shunday “tanballikdan” voz kechib, ijtimoiy-siyosiy faollikkha o‘tishga bo‘lgan talab ortadi. Agar fuqarolar, ayniqsa, yoshlar tafakkuri, amallari, jamiyatda yashash uslubida ijtimoiy-siyosiy faollik bo‘lmas ekan,

mamlakat suverinitetiga qaratilgan mafkuraviy tahdidlar mohiyatini anglash, ularning yashiringan maqsadlarini topish, ularning qo'llayotgan usullarini vaqtida fosh qilish qiyin kechadi.

Hozirgi kunda yoshlар davlatchilik tarixi uchun muhim bo'lgan ana shunday ong va tafakkur o'zgarishlarini amalga oshirmog'i darkor, millat va xalqni taraqqiyot sari olib borishga tayyor turmog'i zarur. Agar yosh avlod mazkur vazifani uddalasa, u zamondan oldinda yuradi. Buning aksi bo'lsa, bir necha bor tariximizda bo'lgani kabi avlod, millat va xalq yana orqada qolib ketadi. Shu sababdan ham, bugungi yosh avlodning mafkuraviy tahidlardan o'zini muhofaza etishi taraqqiyotning yagona ustuvor yo'lidir. Ana shunday mafkuraviy jihatdan qaltis, davlatchilik asoslariga rahna soluvchi, uni ichdan emirishga asoslangan, yoshlар tafakkurini diniy aqidaparastlik kabi buzg'unchi g'oyalar bilan shakllantirishga qaratilgan harakatlar Islom dini, diniy bag'rikenglik, tolerantlik, dinning zamonaviy jamiyatlardagi o'rni masalalarini mustaqillik mafkurasi asosida yoshlар ongiga singdirishni talab etadi. Shu boisdan ham "...yuksak fazilatlari va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy mafkuraning bosh maqsadidir"[4-3].

Bugun ana shunday so'rovli zomonda Diniy tarbiya ham yoshlarning zamonaviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim axamiyat kasb etib, davlat, din va inson munosabatlarini dunyoviylik, liberallik asosida yo'lga qo'yishga xizmat qilmog'i darkor. Diniy qadriyatlar inson ma'naviyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tan olingan. Diniy e'tiqod millat mentalitetida chuqr tarixiy ildizlarga ega. Diniy e'tiqodga ega bo'lgan, taqvodor inson jamiyatda hurmat va e'tiborga sazovor. Bu mintaqada dinni inkor etish va undan voz kechish alomatlari hech bir tarixiy davrda yuzaga kelmagan. Demak, dinga bo'lgan ishonch va hurmat insonlar tafakkuriga juda chuqr singib ketgan fazatlardan hisoblanadi. Shu boisdan ham falsafa fanlari doktori, professor Ibrohim Karimov insonning barkamolligi undagi e'tiqod, imon va maslak bilan o'lchanishini ta'kidlab yozadi:"yuksak ma'naviyat ijodkori va harakatlantiruvchi kuchi faqat barkamol insonlar, ya'ni barkamol avlod bo'lishi mumkin. Zero, barkamollikka intilgan har bir inson imon sohiliga yo'l olsa, imonlilik esa barkamollikning asosiy shartidir. Imon, ba'zilar o'ylaganidek, axloq kategoriysi emas, balki u muayyan dunyoqarash g'oyalariga qattiq ishonch, e'tiqod va bunga har qanday sharoitda sodiq qolish uchun ichki ong (qasamyod) qilish hamdir. Shu bois imonli insonlargina vijdon, insof-diyonat, halol - poklik, kabi axloqiy sifatlarga ega bo'ladilar"[5-4-5] - deb ta'kidlaydi. Shu sababdan, yoshlар tafakkurida ham dinga bo'lgan munosabat mazkur masalaning ilmiy o'rganilishi, uning o'ziga xos xususiyatlarining belgilanishini, yoshlар diniy tafakkuri masalasida davlat, nodavlat va maxsus tizimlar faoliyatidagi hamkorlik va kamarbastalikni nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Imom al Buxoriy aytganidek "ilimdan boshqa najot yo'q" degan

fikirdan kelib chiqib aytamizkiy agar milliy taraqqiyotning ibtidosi ta'lim-tarbiya, ma'naviy etuklik va jamiyatda yangicha tafakurning shakllanishi siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lsa, uning davomiyligi Vatan va yurt manfaatining ustuvorligi hamda ta'minlanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Shunday ekan, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni ko'proq yoshlar va ularning ma'naviy, intellektual salohiyati, siyosiy va huquqiy bilim darajasiga bog'liqdir. Darhaqiqat, har bir mamlakatda yoshlar aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi ma'naviy intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir. Davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning ishtiroki ularning ob'ektiv vogelikka munosabatida to'la namoyon bo'ladi. Boshqaruv jarayonidagi bunday munosabat har bir insonning jamiyat siyosiy hayotida o'z o'rniqa ega bo'lishi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy maqsad va manfaatlarini qondirishi hamda, ularni amalga oshirish yo'lidagi xarakatlari asosida yuz beradi. Jamiyatda yangicha munosabatlar tarkib topayotgan hozirgi davrda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – Б.205
2. <https://sputniknews-uz.com/analytics/20170703/5736267/Mirziyoyev-yoshlarga-Hukumat-eshiklarini-ochdi.html>
3. Қаранг: Муаллифлар жамоаси. Фидойинг бўлгаймиз сени, Ўзбекистон! Ўқув кўлланма. – Т.: “Маънавият”, 2017. – Б. 160.
4. Бобоев Х. Ва бошқалар. Миллий истиқлол мағкураси ва тараққиёт. – Т.: 2001. 3-6.
5. Каримов Иброҳим. Имон ва маслак тарихи. – Тошкент, “YANQi NASHR”, 2010, - 4-5 6.